


## TARIX

1. Quyidagi davlatlardan qaysi biri texnik taraqqiyotda G'arbdan tobora ortda qolib kelayotgan bo'lsa-da, to XVIII asrning oxirigacha iqtisodiy jihatdan dunyoning eng qudratli davlatlaridan biri bo'lib qoldi?  
A) Hindiston B) Yaponiya C) Koreya  
D) Xitoy
2. 1917-yil Rossiyadagi inqilobiy voqealar ta'sirida Ispaniyaning Kataloniya va boshqa viloyatlarida boshlangan ish tashlashlar hukumatni qanday qonun qabul qilishga majbur qilgan?  
A) *majburiy boshlang'ich ta'lim va oliy ta'lim to'g'risidagi*  
B) *10 yoshdan kichik bolalarni ishga qabul qilishni taqiqlash to'g'risidagi*  
C) *8 soatlik ish kuni to'g'risidagi*  
D) *"Ish haqi minimumi to'g'risida"gi*
3. 1868-yil rus qo'shinlari tomonidan bosib olingan hududlarda Samarqand va Kattaqo'rg'on bo'limlaridan iborat Zarafshon okrugi tuzilib unga kim boshliq etib tayinlangan edi.  
A) *general I.F.Abramov*  
B) *general-leytenant A.Vrevskiy*  
C) *harbiy vazir A.N.Kuropatkin*  
D) *general M.Skobelev*
4. Quyidagi fizik olimlardan kimlar lazer-nurning mutlaqo yangi turini yaratganliklari uchun Nobel mukofotiga sazovor bo'lishgan?  
1) N.Basov; 2) D.Kilbi; 3) R.Noys;  
4) A.Proxorov; 5) Ch.Tauns.  
A) 2, 3, 4 B) 1, 4, 5 C) 2, 3, 5 D) 1, 2, 4
5. Sun Yat Senning "Xitoy uyg'onish jamiyati" nomli tashkiloti nima uchun kurashgan?  
A) *Tayvanni Xitoyga birlashtirish va Yaponiyaga tovon to'lashni to'xtatish uchun*  
B) *Xitoyda monarxiyani ag'darib, sotsialistik jamiyat qurish uchun*  
C) *Xitoyda "Sinxay inqilobi"ni amalga oshirish uchun*  
D) *manjurlarning Sin sulolasini ag'darib tashlash va Xitoyda demokratik milliy davlat tuzish uchun*
6. Temirdan birinchi bo'lib Kichik Osiyoda qaysi xalqlar foydalangan?  
A) *finikiyaliklar* B) *xettlar* C) *urartlar*  
D) *forslar*
7. Qadimgi yunon rivoyatlaridagi yarmi ot, yarmi odam qiyofasidagi mavjudotlar nima deb atalgan?  
A) *sfinks* B) *sirena* C) *kentavr* D) *siklop*
8. Quyida berilganlardan qaysilari Hindistonning XVI-XVIII asrlardagi tarixi bilan bog'liq?  
1) Sipohiyalar qo'zg'oloni; 2) lo'diyalar sulolasi; 3) boburiylar sulolasi; 4) sayyidlar sulolasi; 5) "tlatoani"; 6) Tojmahal mavzoleyi  
A) 1, 4, 5 B) 3, 4, 6 C) 2, 3, 6 D) 1, 2, 5
9. Afrikada XIV asr oxiridan mustaqil faoliyat yurita boshlagan davlatni toping.  
A) *Songai* B) *Mali* C) *Gana* D) *Aksun*
10. Tarixda «Uch yuz spartalik jasorati» degan nom bilan mashhur bo'lgan voqea qaysi jangda bo'lgan?  
A) *Fermopil* B) *Plateya* C) *Marafon*  
D) *Salamin*
11. Quyida berilganlardan qaysilari Paul fon Gindenburg faoliyati bilan **bog'liq emas**?  
1) Birinchi jahon urushi davrida Germaniya qo'shinining qo'mondoni etib tayinlangan; 2) Birinchi jahon urushida yashin tezligida g'alabaga erishish rejasini ishlab chiqqan; 3) Germaniya qo'shinining 1917-yilgi harakat rejasini tuzgan; 4) 1932-yilgi prezidentlik saylovlarida g'olib chiqib, Germaniya Prezidenti etib saylangan; 5) Germaniya natsional-sotsialistlar ishchi partiyasining yo'lboshchisi bo'lgan; 6) Ikkinchi jahon urushida Sovet Ittifoqi bilan Germaniyaning so'zsiz taslim bo'lganligi haqidagi shartnomani imzolagan  
A) 1, 4, 6 B) 2, 3, 4 C) 1, 3, 5 D) 2, 5, 6

12. 1928-1932-yillarda Sovet davlatida amalga oshirilgan birinchi besh yillikning asosiy vazifasi nimadan iborat edi?
- A) *mamlakatni yaqinlashib kelayotgan urushga tayyorlash*  
 B) *Yangi iqtisodiy siyosat (NEP) ning rolini oshirish*  
 C) *mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha AQShdan keyingi ikkinchi o'ringa chiqish*  
 D) *SSSRni agrar mamlakatdan sanoati rivojlangan va kuchli harbiy davlatga aylantirish*
13. Quyidagi qabilalardan qaysi biri X asrda Movarounnahrning shimoliy hududlarini egallagach, Shosh atrofi, Farg'ona hamda Zarafshon vodiylariga kelib o'rnashgan edi?
- A) *forslar* B) *xioniylar* C) *qarluqlar*  
 D) *eftallar*
14. XVIII-XIX asrlarda Afg'onistonda hukmronlik qilgan qabilalarni toping.  
 1) abdali; 2) zend; 3) qojar; 4) barakzay  
 A) 2, 3 B) 2, 4 C) 1, 4 D) 1, 3
15. 1882-yilda Misr quyidagi qaysi davlat mustamlakasiga aylangan?
- A) *Fransiya* B) *AQSh* C) *Germaniya*  
 D) *Buyuk Britaniya*
16. Quyidagilardan Farg'ona vodiysida bolsheviklarga qarshi istiqlolchilik harakati rahbarlari bo'lgan qo'rboshilarni belgilang.  
 1) Katta Ergash; 2) Ochilbek; 3) Bahrombek; 4) Shermuhammadbek; 5) Islom Polvon; 6) Hamroqulbek.  
 A) 2, 3, 6 B) 1, 3, 5 C) 1, 4, 5 D) 2, 4, 6
17. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2018-yil 9-yanvarda qabul qilingan qonunni belgilang.
- A) *"O'zbekiston Respublikasi Mudofaa doktrinasi to'g'risida"*  
 B) *"O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to'g'risida"*  
 C) *"Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"*  
 D) *O'zbekiston Respublikasining "Tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasi"*
18. Quyidagi voqealardan qaysilari qadimgi dunyo tarixida yuz bergan?  
 1) Salib yurishlarining boshlanishi;  
 2) Muqaddas Rim imperiyasining vujudga kelishi; 3) Yangi Bobil podshohligining vujudga kelishi; 4) Ossuriya podshohligining zavolga yuz tutishi  
 A) 2, 4 B) 2, 3 C) 3, 4 D) 1, 2
19. Mirzo Ulug'bek ichki savdning fulusiy pullarga bo'lgan talabini qondirish uchun qaysi shaharlarda zarbxonalar tashkil etib, bir xil vazndagi fuluslar zarb ettirib muomalaga chiqargan?  
 1) Buxoro; 2) O'ratepa; 3) Samarqand; 4) Tabriz  
 A) 2, 4 B) 2, 3 C) 1, 4 D) 1, 3
20. Mo'g'ullar hukmronligi davrida Chig'atoy ulusida joriy qilingan "shulen" (a) va "targ'u" (b) soliqlari to'g'risidagi ma'lumotlar mos ravishda berilgan javobni toping.  
 1) ziroatchilardan olinadigan yer solig'i;  
 2) hunarmand va savdogarlardan undiriladigan soliq; 3) chorvadorlardan olinadigan soliq; 4) davlat xazinasi uchun olinadigan oziq-ovqat solig'i.  
 A) a-2, b-3 B) a-3, b-2 C) a-1, b-4  
 D) a-4, b-2
21. Ispaniya zulmidan ozod bo'lgan barcha Amerika Respublikalari konfederatsiyasini tuzishni orzu qilgan kurashchi kim edi?  
 A) *Simon Bolivar* B) *Migel Idalgo*  
 C) *Xose San-Martin* D) *Bonifatsio*
22. *"U Chingizxon bilan elchilik aloqalari olib borgan. Uning hukmronligi davrida Mo'g'ullar Xorazmshohlar davlatiga yurish boshlagan. 1210-yilda O'tror shahri aholisi unga qarshi qo'zg'olon ko'targan"*.  
 Yuqoridagi ma'lumotlar qaysi hukmdor haqida ekanligini toping.  
 A) *Qutbiddin Muhammad*  
 B) *Sultonshoh Mahmud* C) *Takash*  
 D) *Alovuddin Muhammad*
23. Eronda qaysi sulola hukmronligi davrida mamlakat nomi o'zgartirilib, Fors o'rniga Eron deb ataladigan bo'ldi?  
 A) *qojarlar* B) *safaviylar* C) *pahlaviylar*  
 D) *zendlar*


24. 2008-yilda G-20 (Katta yigirmalik) obro'li klubiga a'zo bo'lgan Lotin Amerikasi davlatlarini aniqlang.  
1) Braziliya; 2) Ekvador; 3) Meksika; 4) Peru;  
5) Venesuela; 6) Argentina  
A) 2, 4, 5    B) 1, 3, 6    C) 1, 5, 6    D) 2, 3, 4
25. Mashhur amerikalik yozuvchi J.London o'zining ... asarida halol ijod ahlining soxta madaniyat bilan fojiali to'qnashuvini ochib bergan.  
A) "Hayot"    B) "Mont-Oriol"  
C) "Marten Iden"    D) "Sodiq fuqaro"
26. Quyidagi olimlar va ularni ixtirolari bilan mos ravishda berilgan to'g'ri javobni toping.  
1) L.Bakeland; 2) E.Rezerford; 3) A.Eynshteyn;  
4) A.Bekkerel.  
a) Jismlarning kattaligi va vaqtning uzunligi nisbiydir, deb isbot qildi; b) hamma atomlar og'ir yadroga ega ekanligini isbotladi;  
c) plastmassa olish yo'lini topdi; d) uran atomlari yaqin joyda turgan jismlardan o'tib ketadigan nurlarni o'z-o'zidan chiqarishini aniqladi.  
A) 1-c, 2-d, 3-a, 4-b    B) 1-a, 2-b, 3-d, 4-c  
C) 1-c, 2-b, 3-a, 4-d    D) 1-a, 2-c, 3-b, 4-d
27. Quyidagilardan XX asrning birinchi choragida bo'lib o'tgan voqeani belgilang.  
A) Turkiston general-gubernatorligining rasmiy nashri- "Туркестанские ведомости" va uning o'zbek tilidagi ilovasi "Turkiston viloyatining gazetasi" chiqa boshladi.  
B) Toshkentda Turkiston xalq kutubxonasi tashkil etildi.  
C) Qo'qon shahrida Hamza rahbarligida havaskorlar teatri tashkil etildi.  
D) Bog'chasaroyda dastlabki jadid maktabi faoliyat ko'rsata boshladi.

28. 1684-yilda Yevropaning bir necha davlatlari xaritada qaysi raqam bilan belgilangan davlatga qarshi "Muqaddas Liga" tuzgan?



- A) 2 B) 3 C) 1 D) 4

29. 1889-1913-yillarda Qizil dengiz bo'yi va Somali yarimorolini o'zaro taqsimlab olgan davlatlar xaritada qaysi raqamlar ostida berilgan?



- A) 3, 5, 6 B) 1, 2, 6 C) 1, 3, 5 D) 3, 4, 5

30. Qaysi qatorlarda davlat, hukmdor va hukmronlik yillari to'g'ri berilgan.

№	Davlat	Hukmdor	Hukmronlik yillari
1.	Germaniya	Fridrix I Barbarossa	1152-1190
2.	Kiyev-Rusi	Igor	912-945
3.	Fransiya	Lyudovik XI	1422-1461
4.	Usmonli turklar davlati	Boyazid	1389-1402
5.	Dehli sultonligi	Qutbiddin Oyboq	1211-1236
6.	Mali	Sundiata Keyt	1240-1265

A) 3, 5, 6    B) 1, 2, 4    C) 1, 3, 5    D) 2, 4, 6